



TIBBIY TERMINLARNING YASALISHI VA ULARNING MORFOLOGIK TAHLILI

Sharipov Bobur Salimovich

Samarqand Zarmed universiteti Chet tillar kafedrası o'qituvchisi

Annotatsiya. Ushbu maqolada tibbiy terminlarning yasalishi va ularning morfologik tahlili tahlil qilinadi. Terminlarning asosiy tarkibiy qismlari – asos (negiz), prefikslar va suffikslardan iboratligi ko'rsatilib, ular yordamida yangi atamalarni tez tushunish va amaliyotda to'g'ri qo'llash imkoniyati ta'kidlanadi. Misollar va jadval yordamida prefikslar, suffikslari va asoslar bilan tibbiy terminlarni tahlil qilish ko'rsatildi. Shu bilan birga, xalqaro standartlar (Terminologia Anatomica) orqali terminologiyaning yagona va aniq ishlatilishi muhimligi ta'kidlandi.

Kalit so'zlar: tibbiy terminlar, asos, prefiks, suffiks, morfologik tahlil, morfemal tarkib, patologik holat.

Аннотация. В данной статье анализируется образование медицинских терминов и их морфологический анализ. Показано, что основными компонентами терминов являются основа (корень), префиксы и суффиксы, а также подчеркивается возможность быстрого понимания новых терминов и их правильного применения на практике. Анализ медицинских терминов с префиксами, суффиксами и основами представлен на примерах и в таблице. При этом подчеркивается важность единообразного и точного использования терминологии в соответствии с международными стандартами (Terminologia Anatomica).

Ключевые слова: медицинские термины, основа, префикс, суффикс, морфологический анализ, морфемный состав, патологическое состояние.

Abstract. This article analyzes the formation of medical terms and their morphological analysis. It is shown that the main components of terms are the base (root), prefixes and suffixes, and the possibility of quickly understanding new terms and correctly applying them in practice is emphasized. The analysis of medical terms with prefixes, suffixes and bases is shown using examples and a table. At the same time, the importance of a uniform and accurate use of terminology through international standards (Terminologia Anatomica) is emphasized.

Key words: medical terms, base, prefix, suffix, morphological analysis, morphemic composition, pathological condition.



Kirish. Tibbiy terminologiya zamonaviy tibbiyot fanining ajralmas qismi bo'lib, u kasalliklarni aniqlash, diagnostika va davolash jarayonlarini aniq va samarali amalga oshirishga xizmat qiladi. Tibbiyot sohasidagi har bir termin – organ, tizim, kasallik, jarayon yoki patologik holatni belgilash uchun mo'ljallangan bo'lib, ularning to'g'ri va bir xil ishlatilishi nafaqat amaliyotda, balki ilmiy tadqiqotlarda ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Ko'pchilik tibbiy atamalar lotin va yunon tillaridan kelib chiqqan bo'lib, ular aniq morfologik tuzilishga ega. Shu sababli, terminlarni o'rganishda ularning *yasalishi* (*morfemal tarkibi*), ya'ni ildizlar, prefikslar va suffikslarga bo'linishi, ularning ma'nosini aniqlash va amaliy qo'llanishini tushunish zarur. Misol uchun, yangi o'rganilayotgan termini tahlil qilish orqali uning "kasallik", "jarayon" yoki "jarrohlik amali" bilan bog'liqligini tezda aniqlash mumkin.

Asosiy qism. Tibbiy terminologiya xalqaro standartlarga muvofiq bo'lishi shart. Xalqaro *Terminologia Anatomica* kabi standartlar terminlarni bir xilda ishlatishga imkon beradi, sinonimlar va chalkashliklarni kamaytiradi. Bu, ayniqsa, turli mamlakatlarda o'qiyotgan talabalar va xorijiy mutaxassislar bilan muloqotda muhimdir.

Shu nuqtai nazardan, tibbiy terminlarning yasalishi va ularni morfologik tahlil qilish nafaqat akademik bilimlarni oshirish, balki klinik amaliyotda xatoliklarni kamaytirish va ilmiy tadqiqotlar samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Ushbu maqola tibbiy atamalarning tarkibiy qismlari – asos (o'zak qismi), prefikslar va suffikslarga e'tibor qaratgan holda ularning morfologik tahlilini ko'rsatadi hamda keng qo'llaniladigan misollar bilan tushuntiradi.

Tibbiy terminlarning yasalish turlari. Atamalarning asos qismidan hosil bo'lgan terminlar ya'ni terminning negiz qismi organ, tizim yoki kasallik nomini bildiradi va uning asosiy ma'nosini belgilaydi.

cardi- – yurak (*cardiologia* – yurak kasalliklarini o'rganadiga va davolaydigan soha)

nephro- – buyrak (*nephritis* – buyrakning yallig'lanishi)

oste- – suyak (*osteoporosis* – suyaklarning zaiflashishi)

Prefikslar so'z boshida qo'shib, ma'noni kengaytiradi yoki o'zgartiradi:

hyper- – ortiqcha (*hypertensio* – yuqori qon bosimi)

hypo- – yetishmovchilik (*hypoglycemia* – qonda shaker miqdorining kamayishi)

sub- – ostida (*subcutaneous* – teri ostida).

Suffikslar so'z oxirida qo'shib, jarayon, kasallik yoki tadqiqot ma'nosini bildiradi: *-itis* – yallig'lanish (*hepatitis* – jigarning yallig'lanishi), *-ectomy* – jarrohlik



yo'li bilan olib tashlash (appendectomy – appenditsitni olib tashlash), *-logia* – ilmiy tadqiqot (neurologia – asab tizimini o'rganadigan soha).

Ba'zi tibbiy atamalar bir nechta ildiz yoki morfemalardan hosil bo'ladi: *gastroenterologia* – oshqozon (*gastro-*) va ichak (*enter-*) ilmiy tadqiqoti (*-logia*), *rhinoplastica* – burun (*rhino-*) shaklini tuzatish (*-plastica*).

Tibbiy terminlarning morfologik tahlili. Morfologik tahlil termin tarkibini – ildiz, prefiks va suffikslarni aniqlashga yordam beradi. Bu yondashuv yangi terminlarni tushunish va eslab qolishni osonlashtiradi. Atamaning asos qismi organ, tizim yoki jarayon nomini bildiradi.

oste- – suyak (osteoporosis)

cardi- – yurak (cardiomyopathia)

derm- – teri (dermatitis)

Prefikslar so'zning ma'nosini aniqlashtiradi: *tachy-* – tez (tachycardia – yurakning tez urishi), *brady-* – sekin (bradycardia – yurakning sekin urishi), *poly-* – ko'p (polyneuritis – ko'plab nervlarning yallig'lanishi).

Suffikslar tibbiy jarayon yoki holatni ko'rsatadi: *-pathia* – kasallik (neuropathia – asab kasalligi), *-scopia* – asbob yordamida tekshirish (endoscopia – ichki organlarni asbob yordamida tekshirish), *-ectomy* – olib tashlash (tonsillectomia – bodomsimon bezni olib tashlash).

Tibbiy terminlarning yasalişini jadval ko'rinishida tahlil qilish

Termin	Asos	Prefiks	Suffiks	Ma'no
Hypertensio	tensio (bosim)	hyper-	-	Yuqori qon bosimi
Nephritis	nepbro (buyrak)	-	-itis	Buyrak yallig'lanishi
Osteoporosis	osteo (suyak)	-	-porosis	Suyaklarning zaiflashishi
Tachycardia	cardi (yurak)	tachy-	-ia	Yurakning tez urishi
Gastroenterologia	gastr(o) (oshqozon), enter(o) (ichak)	-	-logia	Oshqozon va ichakni o'rganish
Appendectomy	append (appenditsit)	-	- ectomy	Appenditsitni olib tashlash
Dermatitis	derm (teri)	-	-itis	Teri yallig'lanishi
Neuropathia	neur (asab)	-	-pathy	Asab kasalligi
Endoscopia	scop (kuzatish)	-	-scopia	Ichki organlarni kuzatish

Tibbiy terminologiya yagona tushunish uchun *Terminologia Anatomica* va boshqa xalqaro standartlarga asoslanadi. Bu standartlar tibbiy atamalarni xalqaro



darajada aniq va bir xil tushunarli qiladi, sinonimlarni kamaytiradi va ilmiy muloqotni soddalashtiradi.

Morfologik tahlil tibbiy atamalarni oson tushunish, yangi terminlarni xotirada saqlash va ularni amaliyotda to'g'ri qo'llashga yordam beradi. Masalan, biror yangi termin – *polyneuropathia* –ni ko'rsangiz, morfemalarni ajratish orqali u "ko'plab nervlarning kasallanishi" ekanligini darhol tushunish mumkin: *poly-* (ko'p) + *neur-* (nerv, asab) + *-pathia* (kasallik). Shu tarzda asos, prefiks va suffiksni tahlil qilish orqali tibbiy atamalarni o'rganish ancha samarali bo'ladi.

Xulosa. Tibbiy terminlarni xalqaro standartlarga muvofiq ishlatish, diagnostika va ilmiy muloqotda chalkashlikni oldini oladi. Ularning anatomik yoki klinik kontekstdagi ma'nosi aniq bo'ladi. Natijada, tibbiy terminlarning yasalishi va morfologik tahlili tibbiyot ta'limi, ilmiy tadqiqotlar va klinik amaliyot uchun muhim vosita hisoblanadi. Terminlarni tahlil qilish orqali talabalar va mutaxassislar organlar, tizimlar, kasalliklar va jarayonlarni yaxshiroq tushunib, xatoliklardan qochishi mumkin.

Tibbiy terminlar lotin va yunon tillari ildizlaridan, prefiks va suffikslardan hosil bo'ladi. Morfologik tahlil terminlarni oson tushunish va xotirada saqlashga yordam beradi. Jadval va misollar orqali terminlarning tarkibi, ma'nosi va qo'llanilishi aniq ko'rinadi. Bu esa standartlashtirilgan terminologiya esa tibbiyotda muloqotni yagona, aniq va samarali qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Sharipov, B. (2023). SOME CONSIDERATIONS ON THE FORMATION OF CLINICAL TERMS IN LATIN. *International Bulletin of Applied Science and Technology*, 3(6), 477-479.
2. Salimovich, S. B. (2025). LOTINCHA ANATOMIK TERMINLARNING TARJIMASI VA QO'LLANILISHIGA DOIR AYRIM MULOHAZALAR. *Medicine, pedagogy and technology: theory and practice*, 3(2), 126-132.
3. Sharipov, B. (2025). TIBBIYOTDA LOTINCHA VA YUNONCHA TERMINLARNING KELIB CHIQISHI, QO'LLANILISHI VA AHAMIYATI TO'G'RISIDA AYRIM MULOHAZALAR. *Journal of science-innovative research in Uzbekistan*, 3(2), 200-208.
4. Muhammadamir, N., & Salimovich, S. B. LOTIN TILI VA TIBBIY TERMINOLOGIYA FANINING TIBBIYOTDAGI ROLI VA AHAMIYATI TO'G'RISIDA MULOHAZALAR.



5. Salimovich, S. B. (2025). VOSITA YORDAMIDA AMALGA OSHIRILGAN VA ADRESIV KAUZARETSIPROKLIK. *Research Focus*, 4(Special Issue 1), 129-131.
6. Salimovich, S. B. (2023). ESSENTIAL COMMENTS ON THE CHARACTERISTICS DUE TO THE ORIGIN OF CLINICAL TERMS AND FEATURES OF CLINICAL TERMINOLOGY. *Research Focus*, 2(6), 144-148.
7. Salimovich, S. B. (2023). SOME THOUGHTS ON THE IMPORTANCE AND HISTORY OF THE LATIN LANGUAGE IN WORLD LANGUAGES. *Research Focus*, 2(10), 49-53.
8. Bektoshevna, E. D., & Salimovich, S. B. (2023). LATIN AND GREEK TERMINOLOGY IN THE PROCESS OF STUDY OF OPERATIVE SURGERY. *Yangi O'zbekistonda Tabiiy va Ijtimoiy-gumanitar fanlar respublika ilmiy amaliy konferensiyasi*, 1(6), 66-72.
9. Salimovich, S. B. (2024). USE OF LATIN TERMINOLOGY IN THE PROFESSIONAL ACTIVITY OF A DOCTOR (BASED ON THE MATERIAL OF AN OUTPATIENT'S MEDICAL CARD). *Multidisciplinary Journal of Science and Technology*, 4(1), 276-281.
10. Salimovich, S. B. (2023). TRANSLATION OF CLINICAL TERMS IN LATIN AND BASIC MEDICAL TERMINOLOGY CLASSES. *Multidisciplinary Journal of Science and Technology*, 3(3), 100-103.